# Jizzax viloyati statistika boshqarmasi

## 2019 yil yanvar-aprel oyida Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

| Sanoat ishlab chiqarish | Iste’mol tovarlari | Kichik biznes |
|---|---|---|
| Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi – 1379,8 mlrd. so’m | Iste’mol tovarlari hajmi – 513,1 mlrd. so’m | Sanoat mahsulotlarida kichik biznesning ulushi – 54,7 % |
| Sanoat ishlab chiqarish indeksi – 100,8 % | O’tgan yilning tegishli davriga nisbatan o’shish sur’ati – 99,0 % | Iste’mol tovarlarida kichik biznesning ulushi – 79,3 % |

**Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo’yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari,** ulushi %da




**Tog’–kon sanoati va ochik konlarni ishlash**

**Ishlab chiqaradigan sanoat**

**elektr, gaz, bug’ bilan ta’minlash va havoni kondisiyalash**

**Suv bilan ta’minlash, kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig’ish va utilizasiya qilish**

## Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash **(B-seksiya)**.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati) **(C-seksiya)**.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1268,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 91,9 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 36,7 %, oziq-ovqat mahsulotlarini Ishlab chiqarish 16,8 %, elektr uskunalar ishlab chiqarish 9,9 %, boshqa nometal meniral mahsulotlar ishlab chiqarish 8,9 % ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

## Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)da asosiy turdagi sanoat mahsulotlari tarkibi



*1-jadval*

## Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| 2019 yil yanvar-aprel oylarida | Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari | O’sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| | **Paxta chigiti, t.** | |
| 38366,0 |  | 119,0 |
| | **Paxtadan yigirilgan ip, t.** | |
| 4858,0 |  | 178,9 |
| | **Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.** | |
| 20058,0 |  | 103,9 |
| | **Trikotaj yoki qulda to’qilgan ustki kiyimlar, ming dona** | |
| 347,0 |  | 76,7 |
| | **O’simlik yog’I (tozalangan), t.** | |
| 4002,0 |  | 76,7 |
| | **Paxta tolasi, t.** | |
| 23565,0 |  | 107,6 |

| 2019 yil yanvar-aprel oylarida | Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari | O'sish sur'ati, % da |
|---|---|---|
| | **Paxta linti, t.** | |
| **2008,0** |  | **108,5** |
| | **Chakana savdo uchun qadoqlanmagan yuzaki aktiv vositalar, yuvish va tozalovchi vositalari, t.** | |
| **440,0** |  | **114,3** |
| | **Porshenli dvigatellarni ishga tushirish uchun qo'rg'oshinli akkumulyatorlar, ming dona** | |
| **251,0** |   | **98,9** |
| | **Mashinada yoki qo'lda tuqilgan trikotaj polotnolar, t.** | |
| **624,0** |  | **94,3** |

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **(D-seksiya).**



Joriy yilning yanvar-aprel oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 74,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,4 % ni) tashkil etdi. Shu bilan birga fizik hajmi indeksi 102,9 % ni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish. **(E-seksiya).**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 25,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ni) tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida sanoatning **(E-seksiya)** mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushni, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, o'tilizasiya qilish 1,4 % ni, suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash esa 0,4 % ni tashkil etdi.



Jizzax viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-aprel oylarida amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 1379,8 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi 100,8 % ni tashkil etdi.

*1-diagramma*

**Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining xajmi,** mlrd. so'm




*2-diagramma*

**Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining tarkibi,** % da



Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jami sanoatda hududlarning yuqori ulushi Jizzax shahri (46,0 %) va Do'stlik (15,3 %), Paxtakor (8,7 %), Zarbdor (5,0 %), Sh.Rashidov (4,2 %), Zomin (4,0 %) tumanlariga to'g'ri kelgan.

*3-diagramma*

**2019 yilning yanvar-aprel oylarida sanoat ishlab chiqarishda hududlarning o'rni,** %da




*4-diagramma*

**2019 yilning yanvar-aprel oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmi,** mlrd. so'm



Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 513,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 99,0 % ni, jami sanoatdagi ulushi esa 37,2 % ni tashkil etdi.

*6-diagramma*




2018 yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlarining ulushi 60,9 % dan 2019 yilning yanvar-aprel oylarida 66,2 % ga ko'paygan.

*7-diagramma*

**2018 yil** **2019 yil**






Amaldagi narxlarda aholi jon boshiga jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 1018,1 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, o'z navbatida Jizzax shahrida 3631,1 ming so'mni, Do'stlik tumanida 3270,2 ming so'mni, Paxtakor tumanida 1637,1 ming so'mni, Arnasoy tumanida 1134,8 ming so'mni tashkil etadi.

*8-diagramma*

**Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari,**
ming so'm



Dastlabki ma’lumotlarga asosan joriy yilning 1 may holatiga 37 ta horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan 366,8 mlrd. so’mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

*9-diagramma*

**Horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarihajmi,** mlrd. so’mda




*10-diagramma*

**Faoliyat yuritayotgan horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni,** birlik



O’tgan yilning shu davriga nisbatan horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar 17 taga ko’paygan



## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida 755,3 mlrd. so’mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo’lib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 54,7 % ni tashkil etdi.

*11-diagramma*

**Jami sanoatda kichik biznesning ulushi,**
foiz hisobida




*12-diagramma*

**Hududlar miqyosida jami sanoat hajmida kichik biznes ulushi,** %da



## Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2019 yil 1 may holatiga 2561 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo’lib, ulardan 902 tasi Jizzax shahrida, 543 tasi Sharof Rashidov, 217 tasi G’allaorol, 197 tasi Zomin, 114 tasi Forish, 99 tasi Paxtakor, 97 tasi Zarbdor, 85 tasi Do’stlik, 76 tasi Baxmal, 75 tasi Mirzacho’l, 61 tasi Zafarobod, 49 tasi Arnasoy, 46 tasi Yangiobod tumanlarida joylashgan.

### 2019 yil 1 may holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

*13-diagramma*




2019 yil yanvar-aprel oylarida viloyatda 81 ta horijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar faoliyat yurib kelmoqda, jumladan Jizzax shaharda 41 ta, Forish tumanida 11 ta, Sharof Rashidov tumanida 5 ta, G’alaorol, Do’stlik, Zomin, Paxtakor tumanlarida 4 tadan, Zarbdor, mirzacho’l, Yangiobod tumanlarida 2 tadan va Baxmal hamda Zafarobod tumanlarida 1 tadan horijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritmoqda.

**Viloyat statistika boshqarmasining**
**Sanoat statistikasi bo’limi**
Aloqa telefoni: *(0371) 230-83-47*